

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-soni)**



**IJTIMOIY FANLAR
SOCIAL STUDIES**

UO‘K: 94 (575.092)

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-1841-5760>

AFG‘ONISTON O‘ZBEKLARIDA O‘ZBEK TILINING UMUMIY HOLATI VA TARIXIY ASOSLARI

*Norqo‘chqarov Xushvaqt Eshnazarovich
Termiz davlat muhandislik va agratexnologiyalar universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: xushvaqt.norqochqarov@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Afg‘oniston o‘zbeklarida o‘zbek tilining umumiy holati, afg‘on hukumatining o‘zbeklarga nisbatan yuritgan siyosati, ularning soniga, Afg‘oniston hududida o‘zbek tili uchun asos bo‘lgan turkiy tilli xalqlar ko‘chib o‘tishining tarixiy davrlariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Afg‘oniston, turkiy tilli qabilalar, Afg‘oniston o‘zbeklari, pushtunlar, o‘zbek tili, dialect (lahja), muhojirlik, Afg‘on Turkistoni, adabiy til, “Chig‘atoy tili”.

GENERAL SITUATION AND HISTORICAL FOUNDATIONS OF THE UZBEKI LANGUAGE AMONG THE UZBEKS OF AFGHANISTAN

Abstract. In this article, the general situation of the Uzbek language among the Uzbeks of Afghanistan, the policy of the Afghan government towards the Uzbeks, their number, the migration of Turkic-speaking peoples who are the basis for the Uzbek language in the territory of Afghanistan attention is focused on the historical periods of the tooth.

Key words: Afghanistan, Turkic-speaking tribes, Uzbeks of Afghanistan, Pashtuns, Uzbek language, dialect (dialect), emigration, Afghan Turkestan, literary language, “Chigatai language”.

ОБЩЕЕ СОСТОЯНИЕ И ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА СРЕДИ УЗБЕКОВ АФГАНИСТАНА

Абстрактный. В данной статье рассматриваются общее состояние узбекского языка среди узбеков Афганистана, политика афганского правительства в отношении узбеков, их численность, а также исторические периоды миграции тюркоязычных народов, которые легли в основу узбекского языка на территории Афганистана.

Ключевые слова: Афганистан, тюркоязычные племена, афганские узбеки, пуштуны, узбекский язык, диалект, эмиграция, Афганский Туркестан, литературный язык, «чиштойский язык».

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Afg‘onistonda o‘zbeklar salmoqli qismni tashkil etib, o‘zbek tilining muomala vositasi sifatidagi geografiyasi ham mamlakatning ancha keng hududini qamrab olgan. Hududlar taqsimotida Afg‘onistonda o‘zbeklarning asosiy qismi mamlakatning shimolidagi Kobul, Mozori-Sharif, Shibirg‘on, Qunduz, Andxoy, Axcha, Hirot, Balx kabi shaharlarda va ularning atrofidagi qishloqlarda yashaydi[1]. So‘nggi yarim asrlik ma’lumotlarni tahlil etganimizda Afg‘oniston aholisining 9-10 % ini o‘zbek tilida so‘zlashuvchi aholi tashkil etishi ma’lum bo‘ladi[2]. Afg‘on o‘zbeklarining tilida ham qarluq, qipchoq va o‘g‘iz lahjalari mavjud. Yozuvda arab alifbosidan foydalaniladi. Xorijdagi ko‘pgina o‘zbek oilalarida bo‘lgani kabi Afg‘onistondagi o‘zbek xonardonlarida ham o‘zbek tilida gapirish yozilmagan qonun bo‘lib, uyda, dasturxon atrofida bir-birlari bilan o‘zbek tilida muloqot qilganlar. O‘zbek muhojirlar farzandlariga asosan o‘zbek tilining og‘zaki nutqini o‘rgatishni maqsad qilib qo‘ydilar.

Afg‘onistonda o‘zbek tilining nufuzi o‘tgan asrning 70-yillari oxiri – 80-yillaridan boshlab ko‘tarila boshladidi. Shu vaqtidan boshlab, ta’lim muassasalarida o‘zbek tilida darsliklar yaratilib, darslar o‘tila boshlandi. O‘zbek tilidagi gazeta va jurnallar nashr etildi. Keyingi davrlarda bu holat yanada yaxshilanib, jurnal va gazetalarning soni ko‘payib, hatto o‘zbek tilidagi televideniya va radioeshittirishlar o‘z faoliyatini boshladidi. O‘zbek tilidagi adabiyot ham jonlandi. XXI asr boshlariga kelib, Afg‘onistonda o‘zbek tili rasmiy til darajasiga ko‘tarilib, qonun bilan mustahkamlandi. Maktablarda o‘zbek tili darslari soni yanada ortib, oliy ta’lim muassasalarida ham o‘zbek tili va adabiyoti fakultetlari yanada ortdi. O‘zbek tilidagi televideniyalar ko‘paydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Afg‘oniston o‘zbeklari tarixi va til xususiyatlari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu maqolada bir qancha tadqiqotchilarning fikrlarini o‘zaro solishtirish orqali qiyosiy tahlil, tarixiylik, izchillik, xolislik kabi metodlardan foydalangan holda mavzu mohiyatini ochishga harakat qilindi. Maqolani mohiyatini yoritishda o‘zbek muhojirlik tarixi bo‘yicha yetuk tarixchi olim Sh.Hayitovning xorijdagi o‘zbeklar tarixi haqidagi monografiyasidan, sharqshunos X.Xashimbekov, N.Nazarov, F.Djumaniyozova va boshqa bir qancha olim va mutaxassislarning tadqiqotlaridan foydalanildi. Maqolada ushbu tadqiqotchilarning fikrlarini o‘zaro solishtirish orqali qiyosiy tahlil qilgan holda o‘rganilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR (ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ / DISCUSSION AND RESULTS). XVIII asr ikkinchi yarmida Afg‘oniston davlati asoschisi Ahmadshoh Durroni (1747-1773 yy.) hukmronligi davrida boshlangan Janubiy Turkistondagi Qunduz, Balx, Axcha, Saripul, Mozori-Sharif, Maymana, Andxoy, Shibirg‘on va Xulm kabi

mustaqil o‘zbek xonliklarini bo‘ysindirish uchun harakat XIX asr 80-yillarida Amir Abdurahmonxon (1880-1901 yy.) tomonidan hududning to‘liq qo‘shib olinib, Afg‘on Turkistoniga aylanishi bilan yakunlandi. Hududni nazoratda tutish uchun Amir Abdurahmon buyrug‘i bilan 1884-1886 qillarda Janubiy Afg‘onistonдан 18 ming pushtun oilalari bu yerga ko‘chirib keltirildi va mahalliy aholidan tortib olinib, davlat mulki deb e’lon qilingan hududlarga joylashtirildi. Amirning bunday ichki migratsiyon siyosati XIX asrning 80-yillari oxiri – 90-yillarida ham davom ettirilib, hokimyatga qarshi bo‘lgan pushtunlarning Gilzoy qabilalari ko‘p millatli shimoliy mintaqaga ko‘chirib keltirildi. Shuningdek, shimoldagi 12 ming o‘zbek oilalarini janubga, o‘zlariga begona bo‘lgan Kobul va Jalolobodga ko‘chirib borgan edi [3, B.10-11.]. Bu kabi o‘beklarning ichki migratsiyasi keyingi XX asr mobaynida ham davom etdi. Jumladan, o‘tgan asrning 20-30 yillarida muhojirlikka o‘tgan turkistonliklarga nisbatan afg‘on hukumati siyosatining o‘zgarib turishi (bunga asosiy sabab qilib Afg‘on hukumatining o‘zida ro‘y beragan siyosi o‘zgarishlar hamda qo‘rboshi Ibrohimbek boshchiligidagi mahalliy va muhojir aholining hukumatga qarshi harakatlarini ko‘rsatishimiz mumkin – X.N.) va natijada ushbu davrda ularning bir qismi (asosan o‘beklarning do‘rmon va laqay urug‘lari) Afg‘onistonning Pokiston bilan chegaradosh viloyati – Helmandga surgun qilindi[4, B.78]. XX asrning so‘nggi choragida yuz beragan ichki harbiy-siyosiy va ijtimoiy jarayonlar ta’sirida ham aholi tinch hayot va tirikchilik manbai izlab mamlakatning turli hududlariga ko‘chib yurishga yoki mamlakatni tark etishga majbur bo‘ldi. Bu holat kuchli ichki migratsiya jarayonini keltirib chiqarib, unga mamlakat shimolidagi aholi xususan, o‘beklar ham tortildi[5, B. 66-79].

Umuman olganda asosan o‘beklar, turkmanlar, tojiklar va qisman hazoralar istiqomat qilgan va etnik xilma-xilligi murakkab bo‘lgan shimoliy hududlarga pushtunlarning ham ko‘chirilishi, mintaqadagi etnik, ijtimoiy va siyosiy vaziyatni yanada murakkablashtirdi. Bir qism (aholining) o‘beklarning ajdodlari yurtidan boshqa hududlar va millatlar orasiga ko‘chirilishi esa ularning turmush tarzini o‘g‘irlashtirib, o‘zligini asrash yanada qiyinlashdi. Bunday holatda boshqa etnik guruhlar va millatlar singari ko‘p sonli o‘zbek millati vakillari ham o‘zlarining milliylik xususiyatlarini: milliy qadriyatlari, urf-odat va an’alarini, milliy tilini saqlashga harakat qilishgan. Milliy mansublikning asosiy sharti esa o‘z ona tilini yo‘qotmaslikdir. Shu sababli o‘beklar o‘zbek tilini saqlab qolish orqali milliy qiyofalarini yo‘qotmaslik choralarini ko‘rdilar[6, B.148-149].

Ushbu holatlardan kelib chiqqan holda, Afg‘oniston o‘beklarida o‘zbek tilining milliy o‘zlikni anglashning asosi sifatida, uning doimiy mavjudligini ta’minlashning bir necha ijtimoiy shartlari mavjud. Jumladan,

- Afg‘oniston o‘beklarida o‘zbek tilining umumiyligi holati va tarixiy asoslarini ko‘rsatib bera olish;

- Hududda yashovchi o‘beklarda til holatining lahjaviy va hududiy farqlari, unga o‘zga tillarning ta’siri va O‘zbekistondagi o‘zbek tili bilan o‘rtadagi farqli jihatlari o‘rgangan holda barcha o‘beklar uchun adabiy tilni yaratish;

- Afg‘onistonda o‘zbek tilining qonuniy asoslanishi, ta’lim tizimi, ijtimoiy-madaniy hayotda, publististika hamda ommaviy axborot vositalari va mediya tizimida qo‘llanilishi holatini doimiy asosda rag‘batlantirish;

- Afg‘onistonda o‘zbek tilidagi adabiyotning qayta shakllanishi hamda madaniy-ma’rifiy kechalar va jamiyatlar hamda ularning o‘zbek tili rivojidagi hissasi oshirib borish.

Tarixiy jihatdan esa bu yerda turkiy tilli qabilalarning paydo bo‘lishi V asrning ikkinchi yarmida Amudaryodan janubga o‘tgan xioniylar va eftaliylar bilan bog‘lanadi. Jumladan, tadqiqotchi F.Djumaniyozova ma’lumotlariga ko‘ra: xalajlar, kanjina turklari, xi-su turklari kabi turkiy urug‘lar aynan shu eftaliylar ittifoqi tarkibida mazkur mintaqalarga kirib borgan. Shuningdek, VII-VIII asrlarda Toxariston va Kobul vodiylarida boshqaruv turkiy sulolalar qo‘lida bo‘lib, G‘arbiy Turk hoqonligi davrida mazkur hududlarda turkiy tilli qavmlarning mavqeい yanada ortadi[7]. G‘aznaviylar davriga kelib, ushbu turkiy etnik plast yanada qalinlashdi. Mo‘g‘ullar bilan birga nafaqat hazoralar, balki qo‘shin safida ko‘plab turkiy askarlar Afg‘oniston hududlariga kirib kelgan edi[8, B.286-295]. Ular ham Afg‘oniston hududida o‘troqlashib, mahalliy aholi orasida turkiy tilli etnik qatlam nufusini oshirishda muhim rol o‘ynagan. Umuman olganda turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar nafaqat shimoliy balki butun Afg‘oniston hududida mavjudligi ancha olis tarixga egaligi tarixiy tadqiqotlar va manbalar orqali bizga ma’lum bo‘lmoqda. Xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida Kobulni tavsiflar ekan, bu yerda o‘n bir – o‘n ikki tilda muloqot qiluvchi aholi yashashini va ular orasida turkiy lafzda talaffuz qiluvchilar ham borligini ta’kidlab, “... O‘n bir-o‘n ikki lafz bila Kobul viloyatida talaffuz qilurlar: arabi, forsiy, turkiy, mo‘g‘uliy, hindiy, afg‘oniy, pashoyi, parojiy, gabriy, barakiy, lamg‘oniy. Muncha muxtalif aqvom va mug‘oyir alfoz ma’lum emaskim, hech viloyatta bo‘lg‘ay”[9, B.185] – deya, boshqa hech qayerda bunchalik ko‘p tilda so‘zlashmasligini aytib o‘tadi. Ma’lum bo‘ladiki, XVI asr boshlarida Bobur Mirzo tomonidan Kobul qo‘lga kiritilguniga qadar ham Afg‘onistonning sharqiy va janubi-sharqiy qismlarida turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar yashaganligi va ular bu yerdagi murakkab etnolingvistik turfaxillik jarayonida ham milliylik xususiyatining eng muhim jihatni hisoblangan o‘z tillarini saqlab qolganligining misoli hamda yuqoridagi tahlillarimizning isboti sifatida ko‘ramiz.

Keyingi temuriylar davrida esa ayniqsa Xuroson davlatining markaziy qismi hisoblangan Shimoliy Afg‘oniston hududlarida siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarning yuksalishi bilan birga turkiy til ham “Chig‘atoy tili” nomi bilan o‘zining eng nozik jihatlarini mumtoz adabiyot va she’riyat orqali namoyon qildi. Ushbu davrdagi til Amudaryoning o‘ng sohilidan farqli ravishda so‘l yoqasida o‘zining ma’lum xususiyatlarini keyingi davrlarda ham (bugungi kunimizgacha ham) saqlab qoldi.

Muhammad Shayboniyxon va shayboniylar hukmronligi davrida xuddi Movarounnahrda bo‘lgani singari hozirgi Shimoliy Afg‘oniston hududlariga ham Dashti Qipchoqdan qatag‘on, ming, saroy, do‘rmon va boshqa ko‘plab o‘zbek qabilalari ko‘chib kelib o‘rnashdi[3, B.8-9]. Natijada Amudaryoning har ikkala tomonidagi keng hududlarga turkiy tilli aholining so‘nggi

yirik qatalami qo‘sildi va o‘zlarining “o‘zbek” nomini butun mintaqadagi mahalliy etnik turkiy tilli xalqlarga berdi.

Daryoning chap sohiliga so‘nggi yirik to‘lqin o‘ng sohildagi Turkiston hududidan XX asning birinchi choragida yuz bergan bo‘lsada, ammo tarixga “O‘rta Osiyo muhajirligi” nomi bilan kirgan ushbu muhajirlilik natijasida Shimoliy Afg‘onistondagi o‘zbek millati vakillarining va turkiy tilda so‘zlashuvchi aholining miqdoriy jihatdan yanda o‘sishiga hissa qo‘shtigan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, O‘zbekistondan tashqarida yashovchi eng ko‘p o‘zbeklar Afg‘oniston hududida yashaydi. Hozirgi Afg‘oniston yerlariga o‘zbeklarning ajdodlari hisoblangan turkiy tilli urug‘larning kelib joylashishi ancha olis tarixga ega ekanligini ko‘rib chiqdik. Demak, bu hududning o‘zida o‘zbeklar millat sifatida shakllangan va o‘zbek tili vujudga kelgan. Shuningdek, Ular bugun Afg‘onistondaki boshqa ko‘p sonli millatlar orasida o‘zlarining milliylik xususiyatlarini, uning birinchi sharti bo‘lgan o‘zbek tilini saqlab qolish, uning mavjudligini namoyon qilish uchun ijtimoiy, ma’naviy-madaniy choralar orqali kurashmoqdalar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Norqo‘chqarov X.E. Afg‘oniston o‘zbeklari soni va hududiy joylashuvi muammosiga doir mulohazalar tahlili. // “O‘tmishga nazar” jurnali, 2019-yil, № 26, B. 42-55.
2. Хашимбеков Х. Узбеки Северного Афганистана. – М., Институт востоковедения РАН, 1994. – 56 с.
3. Nazarov N. Afg‘oniston o‘zbeklari. – Toshkent, 2011. – 127 b. Bu haqda qarang:
4. Ingeborg Baldauf (Berlin, Humboldt universiteti). Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklarning tili, joylashuvi va o‘xshashligi. (Nemis tilidan G‘.Xo‘jayev va A.Ahmedov tarjimas) // QarDU xabarlari, № 1 (23) 2015, B. – 66-79.
5. Hayitov Sh.A. O‘zbek muhajirligi tarixi (1917-1991 yy.). – Toshkent, “ABU MATBUOT KONSALT”. – 2008. – 208 b.
6. Djumaniyozova F.Dj. Ilk o‘rta asrlarda Toxariston va Kobul vodiysida turkiy sulolalar. Avtoreferat, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). – Toshent, 2018. – 49 b.
7. Djumaniyozova F.Dj. Afg‘oniston o‘zbeklari tarixiga qisqacha nazar: umumiyl tavsif. // “Afg‘oniston XX va XXI asrlar chorrahasida: tarixiy, iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jihatlari va uning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o‘zaro munosabati masalalari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami, (Toshkent, 2019-yil 21-22 iyun). – Toshkent, 2019. – B. 286-295.
8. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent, “IJOD-PRESS”, 2020. – 576 b.